MAKTAB VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINING KOGNITIV HAMDA EMOTSIONAL XUSUSIYATLARI NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti “Maktabgacha ta’lim menejmenti”kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)
Miryusupova Nargiza Shavkatovna

Ta’lim tashkiloti rahbarining shaxsiy-psixologik xususiyatlari tashkilot samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. Xususan, Quddus Ibroniy universiteti olimasi Rima Daas o‘tkazgan tadqiqotga ko‘ra, 131 nafar maktab direktori va 1279 nafar o‘qituvchi ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqot rahbarning kognitiv anglash darajasi yuqori bo‘lganda tashkiliy o‘rganish mexanizmlari innovatsiya muhiti orqali samaraliroq amalga oshishini ko‘rsatgan. J.L.Floman, A.Ponnok, J.Jeyn va M.Braketlar tomonidan AQSHda o‘tkazilgan 4847 nafar pedagogini qamrab olgan milliy tadqiqotda rahbarning o‘z emotsiyalarini boshqarishi va xodimlarni hissiy qo‘llab-quvvatlashi darajasi o‘qituvchilarning ishdan qoniqish darajasining sezilarli oshishi 0,42–0,49% va kasbiy «kuyishi»ning pasayishi bilan statistik ahamiyatli bog‘liq ekanligi aniqlangan. Biroq mavjud tadqiqotlarning katta qismi umumta’lim maktabi rahbarlariga qaratilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining o‘ziga xos kognitiv-emotsional xususiyatlari — kichik yoshdagi bolalar va ularning ota-onalari bilan kundalik, yuqori intensivlikdagi hissiy aloqa sharoitida — alohida tahlil obyekti sifatida kam o‘rganilgan. Mazkur tezis ushbu ikki turdagi rahbar faoliyatining psixologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarida kognitiv hamda emotsional xususiyatlarning namoyon bo‘lish psixologik omillarini aniqlash, ularning o‘zaro farqlarini xorijiy tadqiqotlar va O‘zbekiston me’yoriy-amaliy tajribasi asosida qiyosiy tahlil qilish hamda rahbar faoliyati samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan psixologik holatni o‘rganishdan iborat.

Rahbarning kognitiv xususiyati — vaziyatni ko‘p o‘lchamli idrok etish, qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni bir vaqtda tahlil qila olish qobiliyati — tashkiliy o‘rganish va

innovatsion muhitni shakllantirishning ustuvor prognostik omili sifatida tan olingan. Yuqori kognitiv xususiyatga ega rahbarlar vaziyatni ko‘p qirrali tahlil qilish orqali xodimlarni yangi yondashuvlarni sinab ko‘rishga rag‘batlantiradi va bu o‘z navbatida, tashkilot ichidagi o‘rganish mexanizmlarini kuchaytiradi. Maktabgacha ta’lim kontekstida esa kognitiv xususiyat o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ladi: rahbar bir vaqtning o‘zida bolalar rivojlanishi psixologiyasi, pedagogik dasturlar talablari va ota-onalar bilan munosabatlar kabi turli sohadagi axborotni integratsiya qilishi talab etiladi, bu esa Xitoylik L.Jang va boshqa olimlar tomonidan 294 nafar maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda rahbarning transformatsion yondashuvi orqali namoyon bo‘lishi tasdiqlangan.

Rahbarning emotsional intellekti — o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish (emotsiya regulyatsiyasi), xodimlarga hissiy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsata olish qobiliyati — xodimlar farovonligining eng kuchli prognostik omillaridan biri sifatida aniqlangan. Rahbarning emotsional qo‘llab-quvvatlashi pedagoglarning ruhiy charchashi, salbiy hissiyot va ishdan bo'shash niyatining pasayishi bilan bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik inqiroz davrida (jumladan, COVID-19 pandemiyasi) yanada kuchaygan. Shuningdek, pokistonlik olimlar A.A.Chaudxari va izdoshlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar rahbarning emotsional intellekti maktabdagi psixologik iqlimiga va ziddiyatlarni boshqarish uslubiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi tasdiqlangan.

Maktabgacha ta’limda bu ta’sir yanada kuchli namoyon bo‘ladi: tarbiyachining psixologik kapitali (umid, optimizm, o‘ziga ishonch, psixologik barqarorlik) rahbarning transformatsion rahbarlik uslubi bilan kuchli bog‘liq bo‘lib 0,55% tashkil etadi, aynan psixologik kapital orqali tarbiyachi faolligi va jamoa ichidagi munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishi xitoylik olimlar tomonidan isbotlab berilgan.

Maktab va maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlari faoliyatining kognitiv va emotsional jihatlari 1-jadvalda qiyoslangan.

Xususiyatlar	Maktab rahbari (umumta’lim)	Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari
Kognitiv xususiyat	Yuqori — ko‘p pog‘onali pedagogik jamoa va o‘quv dasturlarini boshqarish	O‘ziga xos — kichik jamoa, lekin bolalar yosh xususiyatlari va ota-onalar bilan kundalik muloqot kognitiv yuklamani oshiradi

Emotsional intellekt	Asosan o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan rasmiy munosabatlar	Kundalik bolalarga va jamoaga g‘amxo‘rlik, ota-onalar bilan yaqin hissiy munosabatlar, ayollar ustun bo‘lgan jamoa muhitidagi munosabatlar
Rahbarning emotsional munosabati ta’sir kuchi	Pedagoglarning ruhiy holati va ishdan qoniqishiga 0,42% ta’sir ko‘rsatishi	Tranformatsion rahbarlik tarbiyachi psixologik kapitaliga 0,55% va jamoa ichidagi munosabatlarga bevosita ta’sir qilishi

1-jadval. Maktab va maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining kognitiv-emotsional xususiyatlari qiyosiy tahlili.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son "Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini oshirish zaruratini davlat siyosati darajasida belgilab bergan. Shunga qaramay amaldagi me’yoriy hujjatlarda rahbar lavozimiga qo‘yiladigan talablar ko‘proq ma’muriy-tashkiliy ko‘nikmalarni qamrab olib, rahbarning kognitiv xususiyati va emotsional intellekti kabi psixologik xususiyatlarini baholash hamda rivojlantirishga qaratilgan tizimli mexanizmlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 2025-yilda 38 mingdan ortganidan so‘ng yanada ko‘payganini hisobga olsak aynan shu toifadagi rahbarlarning psixologik tayyorgarligini oshirish dolzarb vazifaga aylanadi.

O‘tkazilgan tahlil asosida ta’lim tashkiloti rahbarlari uchun "Kognitiv-emotsional muvozanat" (KEM) modelining uch tarkibiy qismi taklif etiladi:

1. kognitiv moslashuvchanlik — vaziyatni ko‘p qirrali tahlil qilish va ziddiyatli axborotni integratsiya qila olish qobiliyati;
2. emotsiya regulyatsiyasi — rahbarning stressli vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish darajasi;
3. hissiy qo‘llab-quvvatlash qobiliyati — xodimlar (yoki tarbiyachilar) va ota-onalarga nisbatan empatik munosabat ko‘rsata olish mahorati.

Maktab va maktabgacha ta’lim rahbarlari uchun bir xil psixologik asosni taklif etsa-da, har ikki tarkibiy qismning namoyon bo‘lish intensivligini tashkilot toifasiga qarab tabaqalashtiradi — xususan, maktabgacha ta’limda emotsional komponentning

ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa rahbarlarni tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini tashkilot toifasiga qarab tabaqalashtirilgan holda loyihalashtirish zaruratini asoslaydi.

Xorijiy tadqiqotlar rahbarning kognitiv xususiyati va emotsional intellekti tashkilot samaradorligining mustaqil, statistik ahamiyatli prognostik omillari ekanini tasdiqlaydi, biroq bu ikki xususiyatning maktabgacha ta’lim rahbarlari kontekstidagi o‘ziga xos namoyon bo‘lishi alohida empirik tadqiqot obyekti sifatida yetarli o‘rganilmagan. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda ta’lim tashkiloti rahbarlarini tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimiga kognitiv-emotsional kompetentlikni baholovchi psixodiagnostik vositalarni (masalan, emotsional intellekt va kognitiv moslashuvchanlik shkalalarini) kiritish, shuningdek, taklif etilgan KEM modelini maktabgacha ta’lim tashkilotlari misolida empirik sinovdan o‘tkazish tavsiya etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining kognitiv va emotsional xususiyatlarini bevosita o‘rganilmagan. Shuning uchun ham aynan shu mavzuda tadqiqot ishlarini olib borish juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-79-son Farmoni, 2023-yil 26-may.

2. A.A.Chaudxari, N.Z.Ali, N.Maqsud, A.Nasarullah va R.J.F.Kalimlim. Ta’lim muassasasi rahbarligi va maktabning psixologik-ijtimoiy muhitida emotsional intellektning o‘rni va ta’siri. Journal of Education and Social Studies, 5(2), 453–461. https://doi.org/10.52223/jess.2024.5225

3. R.Daas, C.Shekter va M.Qadach. Kognitiv salohiyati yuqori bo‘lgan rahbarlar: ta’lim muassasasi direktorlarining innovatsion muhit orqali tashkilotning o‘quv va rivojlanish jarayonlariga ta’siri. Journal of Research on Leadership Education, 18(2), 322–344. https://doi.org/10.1177/19427751221080186

4. J.L.Floman, A.Ponnok, J.Jeyn va M.Braket. Emotsional intellektga ega maktab rahbarligi inqirozdan oldingi va inqiroz davrida pedagoglar farovonligining muhim bashoratchisi. Frontiers in Psychology, 14, 1159382. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2023.1159382

5. N.Saydullayeva. Maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruvni raqamli transformatsiya qilishning pedagogik mexanizmlari. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 13(5), 673–675.

6. L.Jang, T.Vu, L.Liyu, P.Ren, va C.Lin. Xitoy maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining rahbarlik uslublari va pedagoglar liderligi o‘rtasidagi munosabat: psixologik kapitalning mediatorlik rolini tadqiq etish. Frontiers in Psychology, 13, 1006184. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.1006184